

O'ZBEK TILIDAGI IBORALARDA XUSHMUOMALALILIK KONSEPTINING
NUTQIY-LINGVOMADANIY TALQINI

Iskandarova Quyoshoy

BuxDPI magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18206493>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi iboralar asosida xushmuomalalilik konseptining nutqiy, semantik va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xushmuomalalilik faqat shaxsiy axloqiy fazilat emas, balki til orqali ifodalanadigan ijtimoiy-me'yoriy hodisa sifatida yoritiladi. Tanlangan iboralar misolida muloyimlik, ehtiyotkorlik, vazminlik, bilvosita ifoda va nutqiy nazorat kabi jihatlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: xushmuomalalilik, ibora, frazeologizm, nutqiy etiket, lingvomadaniyat, konsept.

Abstract. This article analyzes the speech-related, semantic, and linguocultural features of the concept of politeness based on Uzbek idiomatic expressions. The study interprets politeness not only as a personal moral quality but also as a socially normative phenomenon expressed through language. Using selected idioms as examples, such aspects as gentleness, caution, restraint, indirect expression, and speech control are revealed.

Keywords: politeness, idiom, phraseological unit, speech etiquette, linguoculture, concept.

Аннотация. В данной статье на основе узбекских идиоматических выражений анализируются речевые, семантические и лингвокультурные особенности концепта вежливости. В исследовании вежливость рассматривается не только как личное нравственное качество, но и как социально-нормативное явление, выражаемое посредством языка. На примере отобранных идиом раскрываются такие аспекты, как мягкость, осторожность, сдержанность, косвенное выражение и речевой самоконтроль.

Ключевые слова: вежливость, идиома, фразеологизм, речевой этикет, лингвокультура, концепт.

Bugungi globallashuv sharoitida insonlararo muloqot madaniyati muhim ijtimoiy-axloqiy qadriyat sifatida tobora dolzarblik kasb etmoqda. Jamiyatda muomala madaniyati, odob, hurmat, samimiyat kabi tushunchalar insonning nutqiy faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Shu ma'noda, xushmuomalalilik nafaqat axloqiy fazilat, balki lingvistik hodisa sifatida ham o'rganilishi lozim.

Til inson tafakkurining mahsuli bo'lib, unda xalqning mentaliteti, qadriyatlari va dunyoqarashi aks etadi. Ayniqsa, frazeologik birliklar milliy madaniyatning o'ziga xos ko'zgusi hisoblanadi. Chunki ular obrazlilik, emotsionallik va baholovchanlik xususiyatlariga ega bo'lib, insonning ruhiy holati, munosabati va ijtimoiy pozitsiyasini ifodalashda faol ishtirok etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – o'zbek tili iboralarida xushmuomalalilik konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish, ularning semantik, pragmatik va madaniy qatlamlarini tahlil qilishdan iborat.

1.O'rtaga tushdi - ikki tarafni murosaga keltirish maqsadida biror janjalga aralashdi; jabrdiyda deb hisoblagan kishisini himoya qilib biror janjalli ishga aralashdi.¹

¹Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M., Boymatova O. O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati. – Toshkent.Yangi asr avlodi, 2007. –20-25 b.

Semantik tahlil: Mazkur ibora tarkibida uchta asosiy semantik komponent mavjud:

Harakat komponenti - tushdi (faollik, tashabbus) makonsal metafora-ora (ikki tomon o'rtasi, ziddiyatli makon) ijtimoiy vazifa- murosaga keltirish, himoya qilish. Bu yerda "ora" leksemasi faqat fazoviy ma'noda emas, balki ijtimoiy masofa, ziddiyat, qarama-qarshilik metaforasi sifatida ishlatiladi.

Pragmatik tahlil: (nutqdagi vazifasi) Pragmatik nuqtayi nazardan, "oraga tushdi" iborasi odatda: Janjal, tushunmovchilik, kelishmovchilik, ijtimoiy keskinlik kabi vaziyatlarda qo'llaniladi.

Xushmuomalalilik bilan bog'liqligi: Xushmuomalalilik odatda faqat muloyim gapirish yoki yoqimli ohang bilan cheklanmaydi. U ko'pincha mojaroni yumshatish, keskinlikni pasaytirish, ijtimoiy muvozanatni tiklash orqali ham namoyon bo'ladi.

"Oraga tushdi" iborasi xushmuomalalilikning quyidagi komponentlarini ochib beradi:

Lingvomadaniy tahlil: O'zbek madaniyatida ochiq mojarolardan qochish, murosaga intilish, ijtimoiy muvozanatni saqlash muhim qadriyat sanaladi. Shu sababli "oraga tushmoq", "orani buzmaslik" kabi birliklar madaniy kod sifatida faol ishlatiladi. Iboraning xushmuomalalilik konseptidagi o'rnini. Bu ibora xushmuomalalilikni quyidagicha ochadi: Faqat muloyim gapirish emas, mojaroni yumshatish, ijtimoiy muvozanatni saqlash, insonlar orasida ko'priq bo'lish. Shu bois, "o'rtaga tushdi" iborasi xushmuomalalilikning ijtimoiy-axloqiy modelini ifodalaydi.

2. Og'zidan bol tomadi- shirinsuxan bo'ldi, yoqimli, mayin, odamni o'ziga rom etadigan tarzda gapirmoq.²

Semantik tahlil: bu iborada markaziy sema- shirinlik. "Bol" komponenti esa yoqimlilik, mayinlik, zavqlilik, joziba ma'nolarini beradi. Yoqimli so'zlar ta'm bilan qiyoslanadi.

Pragmatik tahlil. Ushbu ibora quyidagi vaziyatlarda ishlatiladi: kishini ishontirishda, ko'ndirishda, ko'ngil olishda, ijtimoiy munosabatlarni yumshatishda. Masalan: U gapira boshlasa, og'zidan bol tomardi.

Bu yerda shaxsning kommunikativ strategiyasi- muloyimlik orqali ta'sir qilish.

Lingvomadaniy tahlil. O'zbek madaniyatida shirinsuxanlik- odob, qo'pol gap- tarbiyasizlik deb baholanadi.

3. Gapni aylantirib aytmoq- fikrni ochiq va keskin shaklda emas, balki muloyim, ehtiyotkor, bilvosita tarzda ifodalamoq;

suhbatdoshni ranjitmaslikni ko'zlab so'zlamog.³

Semantik tahlili. Bu yerda bilvosita ifoda xushmuomalalilikning muhim belgisi hisoblanadi, chunki u:

- suhbatdoshning ruhiy holatini hisobga oladi;
- ijtimoiy masofani saqlaydi;
- mojaroni keltirib chiqarmaydi;
- munosabatni buzmaydi;

Xushmuomalalilik konsepti bilan bog'liqligi. Xushmuomalalilik ko'proq nima deyilganidan ko'ra, qanday aytilgani bilan belgilanadi.

² Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M., Boymatova O. O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2007. –20-25 b.

³³ Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M., Boymatova O. O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2007. –20-25 b.

Bu iborada keskinlik yo'q, ehtiyotkorlik, ijtimoiy moslashuv, vaziyatga moslashish, axloqiy nazorat, har bir so'zning oqibatini o'ylash yotadi.

Pragmatik tahlil. Bu ibora odatda quyidagi vaziyatlarda qo'llanadi:

- tanqid qilish zarur bo'lsa ;
- noqulay haqiqatni aytish kerak bo'lsa;
- suhbatdoshning sha'niga tegib ketish ehtimoli bo'lsa ;
- ijtimoiy masofa saqlanishi lozim bo'lsa ;

Lingvomadaniy tahlil. O'zbek madaniyatida ochiqchasiga, keskin gapirish ko'pincha odobsizlik, tarbiyasizlik, hurmatsizlik sifatida baholanadi.

"Achchiq haqiqatni ham shirin qilib aytish kerak". "Gapini aylantirib aytmq" iborasi ana shu madaniy me'yorning til birliklaridagi ifodasidir.

Xushmuomalalilik konseptidagi o'rni. To'g'ridan to'g'ri gapirish, keskin baho berish emas, bilvosita ifoda, yumshoq nutq, ijtimoiy muvozanatni saqlash kabi ma'nolarni ifodalaydi.

4. **Tilini tiyib gapirmoq**- so'zlashda o'zini nazorat qilmoq, keraksiz, qo'pol, nojo'ya so'zlarni aytmaslikka harakat qilmoq; mulohazali, ehtiyotkor tarzda fikr bildirmoq.⁴

Semantik tahlil. Iboraning markaziy semasi- nazorat. Bu yerda xushmuomalalilik o'z-o'zidan tabiiy emas, balki ongli ravishda boshqariladigan nutqiy xulq sifatida namoyon bo'ladi.

Xushmuomalalilik konsepti bilan bog'liqligi. Xushmuomalalilik faqat yoqimli gapirish emas, balki nimalarni aytmaslikni ham bilishdir. Mazkur ibora xushmuomalalilikning quyidagi jihatlarini ochadi: o'zini tutish, hissiyotlarga berilmaslik, ijtimoiy mas'uliyat, boshqalarning his tuyg'ularini hisobga olish, nutqiy intizom, chegarani bilish, so'zning oqibatini o'ylash kabilar orqali namoyon bo'ladi.

Pragmatik tahlil. Pragmatik jihatdan " tilini tiyib gapirdi" iborasi: keskin vaziyatlarda, janjal oldidan, asabiy holatda, nozik mavzularda qo'llanadi. Masalan:

Lingvomadaniy tahlil. O'zbek xalq mentalitetida quyidagi tamoyil mavjud:

"Til- balo keltiradi". Shu sababli odamdan og'zini, tilini, gapini bilishi talab qilinadi. Bu ibora milliy madaniyatda xushmuomalalilikni hissiy intizom, nutqiy ehtiyotkorlik va vazminlik sifatida ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilidagi iboralar xushmuomalalilik konseptining shakllanishi va mustahkamlanishida muhim o'rin tutadi. Ular orqali nutqiy muomala madaniyati, ijtimoiy muvozanat va insonlararo munosabatlarning barqarorligi ta'minlanadi. Tadqiqot natijalari xushmuomalalilikni konseptual, pragmatik va lingvomadaniy nuqtayi nazardan o'rganish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. I. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 412.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. II. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 395.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80 000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. III. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 528.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Фан, 1978. – 400 б.

⁴ Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M., Boymatova O. O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2007. –20-25 b.

5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 380 б.
6. Safarov Sh. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 220 b.
7. Yo'ldoshev B. Frazzeologiya va frazeografiya masalalari. – Toshkent: Fan, 1999. – 180 b.
8. Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
9. Телия В.Н. Русская фразеология в контексте культуры. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – 330 с.
10. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – Москва: Академический проект, 2004. – 824 с.
11. Sirojiddinov A. O'zbek nutqiy etiketi. – Toshkent: Universitet, 2015. – 190 b.
12. Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M., Boymatova O. O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2007. – 20-25 b.